

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA XAVOTIRLANISHNING GENDER XUSUSIYATLARI PSIXODIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI

Turdiyeva Muhayyo Soxibjon qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası
o’qituvchisi
El.manzil: boburf@list.ru

ARTICLE INFO.

Kalit so’zlar:

ijtimoiy vaziyat, o’quv faoliyati, intellektual salohiyat, muammoli vaziyat, muammoli masala, muloqot, emotsional yaqinlik, ilmiy tafakkur, intellektual rivojlanish va intellektual muvaffaqiyat.

Annotatsiya

maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanishning gender xususiyatlari psixodiagnostikasi va korreksiyasining o’ziga xos xususiyatlari o’rganilgan. Bolalarni psixologik qo’llab-quvvatlash jarayonida qo’llanilishi mumkin bo’lgan usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Butun jahon ilmiy faoliyatining muhim yo’nalishlaridan biri bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni qo’llab-quvvatlashning psixologik imkoniyatlarini muntazam ortirib borishdir. Bolalarning xavotirini kamaytirishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etish orqali ularda ijtimoiy adaptatsiyasi uchun ham muhim zaruriyatdir.

Dunyo miqyosidagi yetakchi universitetlaridan talabalarni o’quv faoliyatida stressga bardoshligining o’rganish bo’yicha Avstraliya instituti (Australian Institute of Family Studies), Seul Milliy universiteti (Seoul National University, Janubiy Koreya), Moskva davlat universiteti (M.V. Lomonosov nomidagi MDU, Rossiya), Boston Shimoliy-Sharqiy universiteti (Northeastern University Boston, AQSh), Angliyaning Chyester Universitetlari (Psychology and Child Development (with Placement Year) BSc), Myunxen universiteti (LMU, Germaniya) va boshqalar tomonidan bolalarning xavotirini psixologik xususiyatlarini o’rganish tobora dolzarb bo’lib kelmoqda.

Tadqiqotchilar katta maktabgacha yoshdagi o’g’il va qiz bolalarda tashvishlanishning namoyon bo’lishidagi farqli omillarini tadqiq etish muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Bir qator olimlarning ta’kidlashicha, o’g’il bolalar ayollarga xos qadriyatlarining etakchi rolini (itoatkorlik, passivlik, qarama-qarshilik va boshqalar) singdiradigan muhitda bo’lishlari sababli qizlarga qaraganda ko’proq

xavotirlanishga moyil. Ular o'z xatti-harakatlarida kattalarning erkakka yo'naltirilgan talablariga moslashishga majbur bo'ladilar: o'zini va zaifni himoya qilish qobiliyati, o'z nuqtai nazariga erishish qobiliyati, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, qiyinchiliklarga dosh berish qobiliyati, hissiy jihatdan nazorat qilish kabilar.

Tadqiqotning maqsadi. katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanishning gender xususiyatlarini aniqlash va ota-onalar va bolalar munosabatlarini optimallashtirish orqali uni tuzatish imkoniyatlari.

Tadqiqotning vazifalari:

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishning shakllanishi muammosi, uning namoyon bo'lishining gender xususiyatlari, shuningdek, bolalarda tashvishlanishning yuqori darajasini belgilaydigan omillar bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni nazariy tahlil qilish;

- tadqiqot dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarning gender xususiyatlarini, ularga nisbatan ota-onalarning munosabatlarining xususiyatlarini o'rganish va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning xavotirlarining og'irligi va ota-onalarning munosabatlarining xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;

- katta maktabgacha yoshdagi bolaning yuqori xavotirlanishini kamaytirishga qaratilgan psixokorreksion dasturini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish (rivojlanishining gender xususiyatlarini hisobga olgan holda) ota-onalarning unga bo'lgan munosabatini optimallashtirish va uning samaradorligini baholash.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili. Bu muammo bilan O'zbekistonlik psixologlaridan E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.S.Safoyev, D.G'.Muhamedova, Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, R.S.Samarovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida talabalarning psixologik muammolarining turli jihatlarini ochib berganlar.

Xorij olimlaridan tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xavotirlanishning gender xususiyatlari muammosi alohida ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganish amalga oshirilmagan.

Maqolaning ilmiy mohiyati quyidagilardan iborat:

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishning shakllanishi muammosi, uning namoyon bo'lishining gender xususiyatlari, shuningdek, bolalarda tashvishlanishning yuqori darajasini belgilaydigan omillar aniqlangan;

- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanishning oldini olishga qaratilgan tadqiqot dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarning gender xususiyatlarini, ularga nisbatan ota-onalarning munosabatlarining xususiyatlarini o'rgangan holda katta maktabgacha yoshdagi bolalarning xavotirlarining og'irligi va ota-onalarning munosabatlarining xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi;

- katta maktabgacha yoshdagi bolaning yuqori xavotirlanishini kamaytirishga qaratilgan psixokorreksion dasturini ishlab chiqilib va sinovdan o'tkazilib (rivojlanishining gender xususiyatlarini hisobga olgan holda) ota-onalarning unga bo'lgan munosabatini optimallashtirildi va uning samaradorligi isbotlandi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Andijon viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti 300 nafar tarbiyalanuvchilari, 90 nafar pedagog-tarbiyachilari, 120 nafar ota-onalar va 14 nafar psixologlari jalb qilinib jami 224 nafar respondentlar jalb qilindi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda A.M. Prixojanning "Bolalar xavotirlanishi shkalasi", R.Templ, V.Amin, M.Dorkilarning "Kerakli yuzni tanla" proektiv metodikasi, A.Ya.Vargava V.V.Stolinlarning "Ota-onalik munosabati" test-anketasi, hamda matematik statistika metodlari (Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash metodlari)dan tadqiqotda olingan empirik materiallarni qayta ishlash va ularning statistik ahamiyatlilik darajasini aniqlash uchun foydalanildi.

Xavotirlanish darajasining juda yuqori va yuqori ko'rsatkichlarini aniqlashda quyidagi holatlar inobatga olindi. Chiziqning aniq emasligi, ko'p o'chirilganligi, barcha oila a'zolariga nisbatan o'zini juda kichkina tasvirlangani yoki umuman o'zini chizmagani, rasmni varaqning qaysi qismidan boshlab chizganligi. Bunday tasvirlangan rasmlar bolaning ruhiy tushkunligi, uning o'ziga bo'lan ishonchining pastligini ifodalaydi.

Ayrim rasmlarda odamlar emas balki, uylarning o'zi ustunlik qilgan. Shuningdek, u bolaning oilaviy ahvoriga salbiy munosabatni aks ettiradi. U oila a'zolarining rasmini o'rniga hissiy ahamiyatga ega bo'lmagan narsalarni chizgan.

Barcha oila a'zolari to'liq bo'lgan rasmlar ham tajribamizda kuzatildi. Hattoki oila a'zolarini ketma-ketlikda joylashtirishda ham ijobiy natija ko'rsatdi.

Shuni ta'kidlash joizki, sinaluvchilar orasida xavotirlanish hamda oilaviy vaziyatda o'zining rad etilishi baholash mezonlarining yuqori ko'rsatkichi bo'yicha deyarli bir xil natijalar qayd etildi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar xavotirlanish darajasining yuqoriligi quyidagi omillar bilan farqlanadi; oila muhitida sog'lom psixologik muhitning yo'qligi, onalarning bolaga me'yordan ortiq ravishda g'amxo'rliqi, noto'liq oilalar va oiladagi turli ijtimoiy tahdidlar va boshqalardir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda yuqoridagi mezonlarning namoyon bo'lishida oila muhitining bevosita ta'siri mavjud, oilaning to'liq bo'lishi, ya'ni unda ota-onaning tinchlik xotirjamlikda yashashlari va unda sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, psixologik sog'lom, aqlli, kuchli iroda sohibi bo'lib yetishishiga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda «Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishni diagnostika qilish va korreksiyalash» mavzusida o'tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalardagi xavotirlanishning darajaviy ifodalanishida emotsional holatlarni indifferent idrok etilishining hissiy o'zini-o'zi qabul qilishga identifikatsiyasi tufayli shaxsiy va vaziyatga oid omillarning integrativ namoyon bo'lishi aniqlanib, shuningdek bolalardagi tortinchoqlik, kommunikativ axborot almashuvini sustligi, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslik, ishonchsizlik, muammoni yechish, ixtiyoriy diqqatning mustahkamlanishi va irodaviy sifatlarni reflektorlanishi kabi psixologik xususiyatlarni rivojlantirish orqali xavotirlanishning oldini olish korreksion dastur samaradorligiga erishish orqali ta'minlandi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanish darajasini baholashda oilada rad etilishning tortinchoqlik hissiga bog'liq ravishda o'z-o'zini qadrlash o'ziga xususiyatlar bilan intensiv namoyon bo'lishi sababli o'z-o'ziga beradigan bahoning hissiy komponenti yetakchi mezon ekanligini olib borilgan eksperimental tadqiqotlar asosida aniqlandi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda irodaviy sifatlarni shakllanishining psixologik xususiyatlari ijtimoiy, individual-psixologik tuzulmaga ega bo'lgan shaxs tiplari, xususiyatlari hamda bolaning muloqotchanlik darajasi, irodaviy-sifatlarning barqarorligi, o'ziga xosligi va subyektiv lokal nazoratning yo'nalganligiga bog'liq holda namoyon bo'lishi va rivojlanishi dalillandi.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishning oldini olishning individual-psixologik

ko'rsatkishlari "komunikativ axborot almashuvining sustligi", "ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslik", "muammoni yechich", "o'z-o'ziga ishonch", "muloqotchanlik", "qat'iyatlilik" kabi shaxs sifatlarining namoyon etilishi, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanish darajasini psixokorreksiyalash uchun onadagi xavotirlarni bolaga transformatsiyalashuvi tufayli ona-bola munosabatlarini o'yin texnologilariga integratsiyalash orqali ta'sir etishning zarurati psixodiagnostik va psixokorreksion yo'nalishlarda muqobil yechimlari topilishi tadqiqot davomida ishlab chiqilgan model yordamida aniqlandi.

Keltirilgan xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

- Bolani tarbiyalashda qo'rqitish usulidan foydalanmaslik; og'zaki tushuntirish va o'rnak bo'lish orqali yondashish usulining imkoniyatlaridan kengroq foydalanish;
- Ta'lim-tarbiya jarayonida bolaga haddan tashqari ko'p talab qo'yimaslik, bolani mumkin bo'lgan xatolari uchun tanqid qilmaslik, balki ijobiy taraflarini ko'proq sifatlash;
- Bola qiyinchilikka duch kelganda, ularni ruhan qo'llab quvvatlash, rag'batlantirish, bolani boshqa muvaffaqiyatli tengdoshlari bilan doimiy ravishda yoqimsiz solishtirmaslik, tanqid qilmaslik va shaxslararo munosabatlarda bolani erkin fikrlashini rivojlantirish;
- Bolalarning xavotirlanish holatlari bilan ishlashda ularning jins va yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, o'ziga bo'lgan ishonch, irodaviy sifatning rivojlanishini ta'minlovchi muallif tomonidan ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi trening dasturdan foydalanish;
- Bolalarning o'zlariga bo'lgan ishonchini intensiv rivojlantirishga qaratilgan metodika va so'rovnomalarni takomillashtirib, bolalarni intellektual qobiliyatlarini va individual psixologik xususiyatlarini aniqlab borish. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda ota-onalar hamkorlikda bolalarning xavotirlanish muammolarini aniqlash orqali, bolalarda uyatchanlik, tortinchoqlik, odamovilik yoki befarqlik kabi salbiy xislatlarni bartaraf etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. –T.: 2010. -544 b.;
2. G'.B.Shoumarov. Oila psixologiyasi-Sharq.:2010.-283 b.;
3. V.M.Karimova.Psixologiya-T.:2000.-200 b.;
4. Сафаев Н.С. Духовност и национальное самосознание личности. Монография.- Т.: ФАН,2004-211 с.
5. Nishanova Z.T, va boshq. Psixologik xizmat. –T.: 2014. -424 b.
6. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to'plami //Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma. — T.: O'zMi, 2003. — 169 b.
7. Samarov R.S. Deviantnoye povedeniye: xarakteristika form imotivov. – Tashkent.: VShSAP. 2004. - 30 s.
8. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1865>